


## Xorazm viloyatida 2018-yil yanvar oyida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi.

Mamlakatimizda 2018-yil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirilishi bilan bir qatorda sanoat sohasida ham Davlatimiz tomonidan mavjud korxonalar quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, yangidan tashkil etilayotgan korxonalarga imtiyozlar yaratib berish natijasida Xorazm viloyatida 2018-yilning yanvar oyida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 401,2 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 128,4 foizni tashkil qildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi 2018 yil yanvar holatiga (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)




- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 93,4 foizni tashkil etdi (2017-yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati 128,3 foiz). Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,01 foizni (o'sish sur'ati 107,7 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 6,1 foizni (o'sish sur'ati 141,8 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish ulushi 0,5 foizni (o'sish sur'ati 62,1 foiz) tashkil qiladi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'sish darajasi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani (2017-yil yanvar oyiga nisbatan 201,1 foiz), Shovot tumani (107,9 foiz), Bog'ot tumani (107,1 foiz), Xiva tumani (104,7 foiz)ga o'sganini ko'rish mumkin.

**2018-yil yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan foizda)**




**2018-yil yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to'g'risida (mlrd.so'mda)**



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida yuqori bo'lgan Xazorasp tumani, Urganch shahri, Xonqa va Bog'ot tumanlari xissasiga to'g'ri keladi.

**2018-yil yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)**



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 39,1 foiz, Urganch shahri 22,3 foiz, Bog'ot 6,7 foiz, Xonqa 6,6 foiz, va Shovot tumani 5,4 foizni tashkil qiladi.

**2018-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish.**


Iqtisodiy faoliyat turlari	mlrd.so'm	O'sish sur'ati, foiz hisobida
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>401,2</b>	<b>128,4</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>0,02</b>	<b>107,7</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,02	107,7
<b>Qayta ishlash faoliyati</b>	<b>374,8</b>	<b>128,3</b>
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	68,7	94,8
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	12,1	144,7
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	111,3	102,7

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari</b>	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Kiyim ishlab chiqarish	3,9	82,4
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	0,4	105,1
Yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	0,3	107,5
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	0,9	105,2
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,1	107,7
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,8	105,0
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	0,002	107,7
Asosiy farmasevtika	0,4	102,8
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	1,6	119,6
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	11,9	108,5
Metallurgiya sanoati	0,6	107,2
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	6,8	126,8
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,1	107,7
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	1,5	106,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	7,9	107,6
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	133,7	231,3
Mebel ishlab chiqarish	1,6	109,3
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	9,2	99,2
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	1,3	98,8
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>24,4</b>	<b>141,8</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>2,0</b>	<b>62,1</b>
<b>Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish</b>	<b>227,7</b>	<b>139,7</b>
<i>shu jumladan:</i>		


Iqtisodiy faoliyat turlari	mlrd.so'm	O'sish sur'ati, foiz hisobida
oziq-ovqat tovarlari	63,8	105,8
nooziq-ovqat tovarlari	161,6	161,3

**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi  
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)**

**2017 yil yanvar**




**2018 yil yanvar**



- Nooziq-ovqat mahsulotlari
- Oziq-ovqat mahsulotlari


Shahar va tumanlarda 66,1 mlrd.so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 161,6 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari (2016-yil yanvar oyiga nisbatan mos ravishda 105,8 foiz va 161,3 foiz) ishlab chiqarildi.

**2018-yil yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.  
(mlrd. so'm)**




Viloyatda 227,7 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2017-yil yanvar oyiga nisbatan 139,7 foizni tashkil etdi.


**2018-yil yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.  
(foizda)**



**2017-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



**2018-yil yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi**

**“Sanoat statistikasi” bo’limi**

**Nashr uchun ma’sul: K.Kuryazov**

**Aloqa telefoni (0362) 224-64-99**